

---

## “BIZ ZO’RAVONLIKKA QARSHIMIZ” TARG’IBOT AKTSIYASI DAVOM ETMOQDA



### “Biz zo’ravonlikka qarshimiz” targ’ibot aktsiyasi davom etmoqda

Respublikamiz hududlarida o’tkazilayotgan “Biz zo’ravonlikka qarshimiz” deb nomlangan 16 kunlik aktsiya doirasida So’x tumanida ham targ’ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. O’tkazilayotgan tadbirlar va suhbatlarda mazkur aktsiyaning mazmun-mohiyati tushuntirilayotir.

So’x tumani IIB JXX XPB XQMB katta inspektori podpolkovnik Shahnoza Shodmonova tomonidan tumandagi barcha korxonalar tashkilotlarda “Biz zo’ravonlikka qarshimiz” deb nomlangan 16 kunlik aktsiyasi doirasida targ’ibot tadbirlari o’tkazilib, tadbirlar davomida jamiyatda xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasidagi qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Qonunlari va Xukumat qarorlari mazmun-mohiyati tushuntirib borilmoqda. Tuman markaziy poliklinikasida o’tkazilgan mazkur tadbirda soha vakillari faollik bilan ishtirok etdilar.

### So’x tumani hokimligi Axborot xizmati



#### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-11-30 15:25:28